

Journal of Social Research in Uzbekistan

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INTERNATIONAL CONFERENCES AND EVENTS IN UZBEKISTAN'S CULTURAL DIPLOMACY

Mamurakhon Asrorkhujaeva

PhD in political sciences, Senior Teacher of
"International relations" department of
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, multilateral diplomacy, cultural diplomacy, trust-building, UNESCO, Bakhshi Festival, Crossroads of Civilizations, Sharq Taronalari (Eastern Melodies), Light Through the Ages.

Received: 24.10.25

Accepted: 25.10.25

Published: 26.10.25

Abstract: This article analyzes the role and significance of international conferences, festivals, and other events in Uzbekistan's cultural diplomacy. It examines how such events contribute to shaping a positive image of the country in the development of culture, arts, and education, as well as the mechanisms for fostering international cooperation. The article aims to identify opportunities to enhance the effectiveness of international conferences and cultural events, and to utilize them as instruments of state diplomacy.

XALQARO ANJUMAN VA TADBIRLARNING O'ZBEKISTON MADANIY DIPLOMATIYASIDAGI O'RNI VA ROLI

Mamuraxon Asrorxo'jayeva

s.f.f.d. PhD

TDSHU "Xalqaro munosabatlar" kafedrasida katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, ko'p tomonlama diplomatiya, madaniy diplomatiya, ishonch fundamenti, Baxshichilik festivali, Sivilizatsiyalar chorrahasi, Sharq taronalari, Asrlar qa'ridagi yog'du.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston madaniy diplomatiyasida xalqaro anjumanlar, festivallar va boshqa tadbirlarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada ushbu tadbirlar orqali mamlakatning madaniyat, san'at, fan-ta'limni rivojlantirishdagi ijobiy imidji shakllanishi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqola xalqaro konferensiyalar va madaniy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni davlat diplomatiyasi vositasi sifatida yanada keng qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЕРЕНЦИЙ И МЕРОПРИЯТИЙ В КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ УЗБЕКИСТАНА

Мамурахон Асрорхужаева

Кандидат политических наук, старший преподаватель

кафедры «Международные отношения»

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, многосторонняя дипломатия, культурная дипломатия, укрепление доверия, ЮНЕСКО, Фестиваль бахши, Перекрёсток цивилизаций, Шарк тароналари (Восточные мелодии), Свет сквозь века.	Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение международных конференций, фестивалей и других мероприятий в культурной дипломатии Узбекистана. Рассматривается, каким образом подобные события способствуют формированию позитивного имиджа страны в развитии культуры, искусства и образования, а также механизмы укрепления международного сотрудничества. Цель статьи — выявить возможности повышения эффективности международных конференций и культурных мероприятий, а также использования их в качестве инструментов государственной дипломатии.
--	---

Insoniyat rivojining eng asosiy unsuri madaniyat hisoblanadi. Avvalo, madaniy merosni o'rganish, uni tanitishni ichki siyosatining muhim vazifasiga aylantirgan davlat xalqaro munosabatlarda ham o'zining qat'iy o'rniga va ovozigga ega bo'ladi. Bugungi kunda davlatlar tashqi siyosiy faoliyatida madaniyatning va madaniy diplomatiyaning ahamiyati ortib bormoqda. Prezident Sh.Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqida, "Birinchi navbatda, milliy diplomatiyamizni buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy merosiga asoslangan holda, dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasi, diplomatiya fani va san'atining eng ilg'or yutuqlari bilan boyitishimiz kerak" [1] deya ta'kidlaganida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning o'rni, ajdodlarimiz takrorlanmas merosini izchil o'rganish, uni tanitish va foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasi – unda madaniy diplomatiya va diplomatiyaning zamonaviy trendlarining jadallashuvida BMTning ixtisoslashgan muassasasi YUNESKO bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, 1998-yil 6-7-noyabr kunlarida O'zbekistonda tashkilotning Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakuniy majlisi o'tkazilgan bo'lib, uning yakunida qabul qilingan "Tinchlik madaniyati va YUNESKOning

unga a'zo mamlakatlardagi faoliyati" Toshkent Deklaratsiyasida YUNESKO shafeligida milliy tarixning unutilmas sanalarini keng nishonlash nazarda tutilgan [2].

Madaniy diplomatiya ommaviy diplomatiyaning bir turi, ommaviy diplomatiyaning ajralmas qismi yoki boshqacha aytganda, ommaviy diplomatiyaning asosiy elementi sifatida o'rganiladi [3]. Boshqa manbada esa, madaniy diplomatiyaning ommaviy diplomatiyani amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan. AQSH davlat departamentining Madaniy diplomatiya bo'yicha maslahat qo'mitasining hisobotida, Madaniy diplomatiyaning mohiyatiga quyidagicha ta'rif beriladi - "Madaniy diplomatiya – har qanday millatning ruhini ochib beradi". Bundan tashqari, yana bir qiziq tushuncha "Foundation of trust(ishonch fundamenti)" ya'ni – madaniy diplomatiyaning ishonch fundamentini barpo qilish xususiyati keltiriladi. Madaniy diplomatiya yordamida xalqlar o'rtasida "ishonch fundamenti" quyiladi va siyosiy, iqtisodiy, harbiy va h.k. shartnomalar kelishib olishi ancha osonlashadi [4].

O'zbekiston olimlari ishlarida, madaniy diplomatiyaning davlatlararo munosabatlarda qo'llanilishi, mumtoz madaniyat, aniqrog'i yuksak, asl ma'nodagi madaniyatnigina nazarda tutish bilan kifoyalanmaydi. Ya'ni u bundan buyon butun xalqlarni birlashtiruvchi, yaqinlashtiruvchi o'ziga xos vositaga aylandi va har bir qatlam uchun ochiq tusga kirgani bilan ajralib turadi. Yana ham aniqrog'i, bu faoliyat doirasi o'ta keng bo'lib, davlat tomonidan yuritilayotgan siyosatning bir tomonini aks ettiradi. Rassomlar, qo'shiqchilar va boshqa san'at namoyondalari amalga oshiruvchi tadbirlargina emas, ularning badiiyligi - film va video roliklarni, o'sha davlat tilini va nihoyat akademik almashinuvlarini ham qamrab oladi. Boshqacha aytganda, keng aholi ommasiga qaratilgan faoliyatni nazarda tutadi [5].

Zamonaviy adabiyot va ilmiy ishlarda tahlil qilish natijasida, xalqaro madaniy tadbirlar madaniy diplomatiyaning muhim vositasi sifatida ham o'rganilgan. Bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi asosiy institut sifatida YUNESKO o'rganiladi. Masalan, A.Negrusa, V.Toader xorijlik olimlar ishlarida, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda, madaniy tadbirlarni o'tkazuvchi davlat jamiyati rivojiga ham nihoyatda katta foyda keltirishini ilmiy dalillar orqali ko'rsatib berilgan bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- ekologik;
- ijtimoiy;
- iqtisodiy;

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot ijobiy natijalarni ilgari suradi va tadbirlarning faqatgina foydali bo'lishi xulosa qilinadi [6]. Hattoki ekologik jihatdan xalqaro tadbirlarning salbiy oqibatlaridan ko'ra ko'proq ijobiy ta'sirlari ustunlik qiladi. Ma'lum bo'lishicha, davlat ekologik holati tadbirlarning o'tkazilishi davomida aksincha yaxshilangan. Masalan, birgina chiqindilarning tadbirlar davomida shahar bo'ylab to'g'ri qayta ishlanishi, bu jarayonning odatdagi holatdan ancha

tez yuz berishi, shuningdek, ham mahalliy aholi ham xorijliklarning bu borada ehtiyotkorligi kuzatilgan. Bu madaniy tadbirlarning bugungi kunda madaniy diplomatiyaning effektiv mexanizmlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xalqaro munosabatlarda davlatlar tashqi siyosatida sohalar kesimiga qarab ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik olib boriladi. Xalqaro tashkilotlar – zamonaviy ulkan o'zgarishlarni hamjihatlik va o'zaro manfaatli yo'sinda qabul qilish, davlatlarning bu borada hamkorlik qilishlari uchun maydon hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tarixiga nazar tashlansa, har turdagi tashkilotni tuzilishida muayyan maqsad va vazifalar turadi. Bu vazifalar zamonlar osha o'zining dolzarbligini saqlaydi yoki yo'qotadi. 1945-yilda tuzilgan YUNESKO o'z maqsadlari hamon nihoyatda aktualligi, bu borada 80 yilga yaqin bosib o'tilgan yo'lni, olib borilgan ishlarning, tajribaning benazirligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zoligi bilan boshlangan rasmiy, ko'p tomonlama diplomatiyasining madaniyat yo'nalishi o'zaro munosabatlarda yetakchilik qiladi. O'zbekiston–YUNESKO madaniy diplomatiyasining leytmotivi etib xalqaro madaniy tadbirlarni ilgari surishni tadqiqotga suyanganda holda taklif etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan YUNESKO Nizomi ma'qullashi va barcha qoidalarga og'ishmay rioya qilinishi 1993-yil 31-iyul kuni tasdiqlangan bo'lib, davlat shu yilning 26-oktyabr kuni a'zo bo'lgan [7]. Shunga qaramay, benazir ajdodlariga, buyuk madaniy va tabiiy merosga boy bo'lgan O'zbekiston bilan hamkorlik munosabatlari sobiq Sovet ittifoqi tarkibidagi boshqa Respublikalar kabi mustaqillikka qadar boshlanganini aynan madaniy tadbirlar, yubileylarning keng nishonlanganida kuzatish mumkin.

D.Sayfullayevning doktorlik dissertatsiyasida, madaniy diplomatiyaning asosiy vazifasi – mamlakatni boshqa xalqlarga yaqindan tanishga ko'maklashish ekanligi keltiriladi [8]. Shu jihatdan ham YUNESKO va O'zbekiston madaniy diplomatiyasining asosiy vositasi xalqaro madaniy tadbirlardir. Madaniy tadbirlarning o'ziga xos xususiyati, jarayon sifatidagi madaniyatda ishtirok etish, uni bilishni kuchaytirishdan iborat. YUNESKO va O'zbekiston ko'p tomonlama diplomatiyasi doirasidagi xalqaro madaniy tadbirlarni asosan quyidagi turlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ajdodlar yubiley tadbirlari;
2. Tarixiy shaharlar yubiley tadbirlari;
3. YUNESKO shafeligidagi madaniyat va san'at xalqaro festival-konsertlari, ijodiy uchrashuv va ko'rgazmalarni o'z ichiga olgan turli tadbirlar.
4. YUNESKO faoliyatiga oid global tadbirlari.

Mustaqillikdan avvalgi hamkorlikda nazarda tutilayotgan tadbirlar aynan birinchi guruh tadbirlarini qamrab olgan. Masalan, 1973-yilda Abu Rayhon Beruniyning 1000-yilligi, 1975-yilda Abu Nasr Forobiyning 1100-yilligi, 1976-yilda Amir Xusrav Dehlaviy tavalludining 700-yilligi, 1980-yilda Abu Ali Ibn Sinoning 1000-yilligi, 1983-yilda esa Muhammad Muso al-Xorazmiy

tavalludining 1200-yilligi tantanali tarzda nishonlandi [9]. YUNESKO va O'zbekistonning to'ma'noda rasmiy munosabatlari boshlangach quyidagi tadbirlar xalqaro miqyosda nishonlandi.

YUNESKO shafeligida o'tkaziluvchi tadbirlar orasida hamkorlikning boshlang'ich davridan hozirgacha o'tkaziluvchi "Sharq taronalari" festivallari, Toshkent kinofestivallari, xalqaro teatr festivallari, O'zbekistonning YUNESKO shtab kvartirasi Parij va boshqa davlatlardagi madaniyat va san'at festivallarini misol sifatida sanab o'tish joiz.

Dunyo O'zbekistonning buyuk moddiy va nomoddiy madaniy merosidan, milliy qadriyatlaridan, umuman madaniyatidan BMTning maxsus tashkilotlari, shu jumladan YUNESKO bilan hamkorlik munosabatlari tufayli bahramand bo'lgani [10], hozirgi paytda esa bu hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilayotgani – ustuvor tashqi siyosiy vazifalardan biri –madaniy diplomatiyaning rivoji hisoblanadi. Demak, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hamkorlikning turli yo'nalishlari qatorida yuqoriroqdagi har 4 turdagi madaniy tadbirlar davriy nishonlanuvchi an'anaga aylantirish lozim.

5-ilovaga e'tibor qaratilsa, 2009-yildan buyon allomalarning tavalludi yubiley tadbirlari nishonlanishi sustlashib borgan tendensiyasini ko'rish mumkin. Vaholanki, shu davrdan hozirgacha qariyb 14 yil vaqt o'tdi. Bu shoshilinch va qat'iy ravishda ushbu madaniy tadbirlarni tiklashni, qolaversa, an'anaviy ravishda o'tkaziluvchi tadbirga aylantirish taklifini kiritish mumkin.

"O'zbekiston va BMT: munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari" nomli monografiyada Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, Qo'qon, Andijon, Karmana, shaharlarining yangi yubiley sanalarini YUNESKO hamkorligida xalqaro miqyosda nishonlash [11] ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi. Ya'ni madaniy tadbirlarni avvalgidanda kengaytirish va an'anaviy o'tkaziluvchi tadbirlarga aylantirish ham yurtimiz uchun ham xalqaro hamjamiyat uchun teng ravishda foydali bo'lishi aniq.

Tarixiy shaharlarning yubiley sanalarini nishonlashda esa, O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi quyidagicha kechgan. Yuqorida ta'kidlangan mustaqillikkacha bo'lgan hamkorlikdan biri Toshkentning 2000-yilligi yubiley sanasini 1983-yilda nishonlanishi hisoblanadi. Bu tadbir YUNESKO va O'zbekiston hamkorligida tarixiy shaharlarni yubileylarining birinchisi bo'lib, bundan keyingi tadbirlar, 1997-yilda Xiva shahrining 2000-yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500-yilligi va Shahrisabzning 2700-yilligi nishonlandi. 2007-yilda Marg'ilonning 2000-yilligi, Samarqandning 2750-yilligi va nihoyat, 2009-yil Toshkentning 2200-yilligi nishonlandi.

Maxsus xalqaro tadbirlar orasida – O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan tashkil qilingan, YUNESKO shafeligida mashhur "Sharq taronalari" xalqaro festivalining o'tkazish dinamikasini kuzatish mumkin. YUNESKO va O'zbekiston ko'p tomonlama diplomatiyasidagi stagnatsiya davri (2009-yildan to 2016-yilgacha) ushbu festivalning tashkiliy ishlari va muvaffaqiyatli o'tkazilishiga ta'sir qilmagani ko'zga tashlanadi. Festival O'zbekiston va

YUNESKO tomonidan muttasil tashkil etilayotgan tadbir hisoblanadi, bunda, 1999-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi festivalni o'z kun tartibiga kiritib, Tashkilot shafeligidagi xalqaro tadbirlardan biriga aylangani tadbirning ustun jihati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi ma'lumotlariga ko'ra, "Sharq taronalari" festivali birinchi bor 1997-yilning 25-avgustidan 2-sentyabriga qadar o'tkazilgan. YUNESKO madaniyat sektori bosh direktori Ernan Krespo-Toral janoblari O'zbekiston madaniyat ishlari vaziri X.Jo'rayevga xat yo'llagan bo'lib, shunday deydi: "O'ylaymanki, ushbu festival YUNESKOning Tinchlik madaniyati, Taraqqiyot madaniyati, Madaniyatlararo muloqot kabi dasturlarini amalga oshirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. "Sharq taronalari" Tashkilot bilan o'rnatilgan hamdo'stlik rivojiga katta hissa qo'shish imkoniyatiga ega xalqaro musiqa tadbiridir" [12]. Har ikki yilda YUNESKO Bosh direktorining tashrifi bilan ochib berilishi yuqoridagi fikrning amaliyotdagi isboti hisoblanadi. YUNESKO Bosh direktori Irina Bokova honim 2013-yil avgust oyida o'tkazilgan "Sharq taronalari"ning ochilish marosimida shaxsan ishtirok etgan bo'lib, ushbu an'anani boshlab bergan ilk YUNESKO Bosh direktori hisoblanadi [13].

O'zbekiston Respublikasining 2017-yildan boshlangan yangi davri ayniqsa, xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasida sezildi. Bu davlat Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil oktyabr oyida Fransiyaga ilk rasmiy tashrifi YUNESKO shtab kvartirasiga tashrifidan boshlangani, bundan keyingi o'zaro munosabatlarning jadal davom etayotganida o'z isbotini topmoqda. "O'zbekiston tashqi siyosatida Yevropa yo'nalishi Fransiya davlatiga tashrif bilan ochilgani" keltirilgan bu tashrifda Prezidentning YUNESKO Bosh direktori O.Azule bilan uchrashuvi natijasida 2021-yillarga qadar mo'ljallangan Harakatlar dasturi imzolandi [14]. Bu hujjat o'zaro ko'p tomonlama diplomatik aloqalarni yangi darajaga olib chiqish, O'zbekiston va YUNESKOning oldiga qo'ygan birgalikdagi vazifalarini yangi, zamon bilan hamnafas – eng asosiysi – asl ma'noda ko'p tomonlama diplomatiyani ishga tushirish orqali mustahkamlashga qaratilgan ekanligini ayni vaqtdagi faol, yaqin munosabatlar guvohlik bermoqda. Shu o'rinda milliy va umumbashariy qadriyatlar genezisi va evolyutsiyasiga bag'ishlangan monografiyada Yangi O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib, eng ko'zga ko'rinayotgan jihatlari sifatida – moddiy va ma'naviy meros, qadriyatlarning tiklanishi, ularni chuqur o'rganishga bo'lgan harakat va xalqning xohishi misol sifatida keltirilgan [15]. O'zbekiston Respublikasi YUNESKOning madaniyatga oid olti asosiy konvensiyasidan beshtasini ratifikatsiya qilgan [16].

Bosh direktor va davlat rahbari uchrashuvidan so'ng, dasturlar bo'yicha Tashkilot va O'zbekiston o'rtasida bir qator ishlar amalga oshirildi, o'zaro munosabatlar yangicha ruhda olib borilmoqda. Sababi, yillar ilgari sustlashib qolgan munosabatlar jonlandi, madaniy tadbirlarning ham jadallashganini keltirib o'tish joiz. Pandemiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlarda butunlay yangi davr boshlanishiga sabab bo'lib, tegishlicha, yangi sharoit va talablar yuzaga keldi. Uning

ta'siri, asoratlari yaqqol namoyon bo'lib, xalqaro tashkilotlar va ular funksiyalaridan kelib chiqqan holda faolligini ham yanada oshirish, yangi sharoitlarda ishlash bo'yicha ko'nikmalarni ham yaratishga undamoqda.

2019-yilda YUNESKO vakillarining ishtirokida "O'zbekiston buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasida: imperiyalar, dinlar, madaniyatlar" nomli katta haftalik amalga oshirildi. Ta'kidlash joizki, 2019-yildan buyon madaniy merosni asrash va dunyoga tanitish ishlarida O'zbekiston Respublikasining sa'y-harakatlaridan yana bir amaliy ifodasi sifatida tanilgan va hozirga qadar jami yetti xalqaro kongressni o'z ichiga olgan "O'zbekiston madaniy merosi – yangi Renessans asosi" loyihasi ham aynan haftalik doirasidan boshlangan edi. Kongress O'zbekiston hukumati, tuzilmalar, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning hamkorligida o'tkaziladi [17].

YUNESKOning amaldagi Bosh direktorining yurtimizga ilk tashrifi – 2018-yilda davlat rahbari Sh.Mirziyoyev bilan bo'lgan uchrashuvning mantiqiy davomi sifatida ko'hna Samarqand shahriga bo'ldi. Samarqand shahridagi kun tartibi Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrashga bag'ishlangan "Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolari va ularni hal qilish strategiyasi" mavzusidagi konferensiya bilan boshlandi. Konferensiya davomida yurtimizdagi moddiy va nomoddiy meros obyektlarini saqlash borasida olib borilgan ishlar va ularning natijalari shuningdek, madaniy va tarixiy meros obyektlarining saqlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan turli faktorlarning xususiyati ko'rib chiqildi. Anjumanda O.Azule "Sharqning fors, hind, xitoy va turk dunyolarining kesishishi natijasida vujudga kelgan durdona yodgorligi Samarqand shahrining tarixiy merosini saqlash va himoya qilish butun insoniyat oldidagi burch hisoblanishini keltirib, moddiy, nomoddiy, tabiiy meros va tarixiy hujjatlarning barchasini har taraflama himoya qilish, qolaversa, eng muhim hamkorlik sohalari hisoblanmish ta'lim tizimida ham yangi davrga muvofiq e'tibor qaratish tomonlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi" deya ta'kidlab o'tdi [18]. Shu o'rinda, YUNESKO Bosh direktorlaridan yana biri, Federiko Mayorning Samarqand haqidagi ta'sirli so'zlarini keltirib o'tishni lozim topdik. "Dunyoda shunday nomlar borki, odamlarni beixtiyor orzular olamiga yetaklaydi. Bu so'zlarning sehri va shuhrati ular haqida eshitganingizda yoki o'qiganingizda darhol ongingizga ta'sir qiladi. Ular orasida bizning tasavvurimizni o'ziga tortadigan shunday nom borki, u Samarqanddir. Bu nom tiniq va rang-barang ranglar girdobidan, mushklar hididan, ajoyib saroylardan, karvon qo'ng'iroqlaridan, sof ohanglardan va yana shu bilan birga, tushunarsiz tuyg'ulardan paydo bo'lganga o'xshaydi.. [19] ».

Baxshichilik – yuksak insoniylik g'oyalarini, tinchlik va do'stlik, adolat va haqiqat kabi mangu ezgu fazilatlarni o'zida tarannum etuvchi xalq og'zaki ijodining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi YUNESKO xalqaro konvensiyasi 1-moddasida keltirilganidek,

«... - jamiyatlar, guruhlar va shuningdek, shaxslarning nomoddiy madaniy merosiga hurmatni ta'minlash,

- nomoddiy madaniy merosning ahamiyati to'g'risida mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda xabardorlikni oshirish va uni o'zaro qadrlashni ta'minlash,

- bu borada xalqaro hamkorlik va yordamni ta'minlash...» [20] maqsadi bilan hamnafaslikda ushbu asrlarga teng nomoddiy meros dunyo nomoddiy madaniy meroslaridan biri hisoblanadi. Baxshichilik Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy o'ziga xos madaniyati hisoblanib, uni asrash va jahonga ko'rsatish ayni shu maqsadni to'liq ifodalaydi. O'zbekiston diplomatiyasining yangi davrining yana bir o'ziga xos jihati – YUNESKO shafeligida o'tkaziluvchi navbatdagi tadbirni yo'lga qo'yilgani hisoblanadi. 2018-yilning 5-10-aprel kunlari xalqaro baxshichilik san'at festivali o'tkazilib, ushbu tadbir ham har ikki yilda o'tkazilishi belgilandi [21]. San'at bayramida YUNESKO, AYSESKO, TURKSOY, MDHning Ijroiya qo'mitasi, Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markazi kabi nufuzli tashkilotlardan tashrif buyurgan martabali mehmonlar, dunyoning turli davlatlaridan kelgan 260 nafardan ziyod xalq ijodiyoti namoyandalari, san'at va madaniyat arboblari, respublikamizning mashhur baxshilari, xonandalari ishtirok etishdi.

2019-yilning 22-27-avgust kunlarida Toshkent, Termiz, Samarqand va Buxoro shaharlarini ichiga olgan “O'zbekiston – buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din va madaniyat” nomli O'zbekistonning madaniy merosi haftaligi davomida, O. Azule, davlat Prezidenti Sh.Mirziyoyev va boshqa mas'ul shaxslar, dunyoning turli nuqtalaridan tashrif buyurgan olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi [22]. Bu haftalik, qamrovi bo'yicha ulkan va olamshumul madaniy meros haftaligi bo'lib, dunyo bo'ylab mashhur olim va qadimshunoslar, muzeylar va ilmiy institutlar rahbarlarini chorlagan yirik tadbirlar majmui hisoblanadi. Haftalik quyidagicha tashkillashtirildi:

1. O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjahon jamiyatining III Xalqaro Kongressi haftalikni ochib berdi;

2. Termiz shahrida “Sivilizatsiyalar chorrahasi” nomli xalqaro arxeologiya turizm Forumi;

3. “Asrlar qa'ridagi yog'du” nomli islomshunoslar xalqaro konferensiyasi;

4. Prezident Sh. Mirziyoyev taklifiga binoan “Moddiy va madaniy merosni saqlash – dolzarb muammolar va ularni hal etish strategiyalari” nomli YUNESKO shafeligidagi xalqaro konferensiya;

5. “Sharq taronalari” XII xalqaro musiqa festivali ochilishi bilan yakunlandi.

YUNESKO Bosh direktori va 20 dan ortiq vakil haftalikning so'nggi ikki tadbirida ishtirok etdilar. Shuningdek, an'anaviy “Sharq taronalari” o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivali ochilish marosimida ham Bosh direktor ishtirok etdi. 3 kunlik tashrif davomida 2001-yilda va 1993-yilda YUNESKO Butun jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan “Samarqand sivilizatsiyalar chorrahasi”ga hamda Buxoroning “Tarixiy markazi”ga tashrif buyurdi. O.Azulening Samarqand va Buxoro

shaharlariga tashrifi borasida mashhur fransuz gazetasi “Le Figaro” [23] da yoritilib, “Bosh Direktorni Temuriylarga oid me’morchilikning o‘ziga maftun etganini, bu davrning ixtirolari va madaniyati jahon uchun yetarli darajada yetib kelmaganini va shu bilan birga, ularga oid she’riyat, ilmning rivoji borasida ma’lumotlar borligi – keltirib o‘tilgan barcha sohalarda tadqiqotlar olib borish, o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi deb ta’kidlaydi [24].

Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, bir nechta madaniyatni birlashtirgan, insoniyat tarixining muhim, hal qiluvchi rolini o‘ynagan madaniyat – jahon madaniyatining ham yuragi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uni o‘rganish, saqlash va dunyoga tanitish jahon madaniyatining ham o‘rganilishi, saqlanishi va tanitilishi hisoblanadi. Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrashda yangi, effektiv qarashlarni shakllantirish va bunda YUNESKOni hamda xorijiy mutaxassislar va mahalliy ekspertlarni jalb qilish asosiy vazifa etib belgilangan edi. Haftalik O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, bu borada izchil hamkorlik olib borish jarayonini yangi bosqichga olib chiqqanini quyidagi raqam va faktlarda kuzatish mumkin. 300 dan ortiq olim (YUNESKO ekspertlari, xalqaro va O‘zbekiston sharqshunos olimlari) ishtirok etib, haftalik so‘nggida 13 yangi kitob, 4 xalqaro konferensiya, 5 yangi film, 3 ta eksklyuziv ko‘rgazma, 30 ta to‘ldirilgan reallik effektiga ega kitob hamda 10 dan ortiq loyiha taqdimoti o‘tkazildi [25].

Keyingi ahamiyatli jihati, YUNESKO ishtirokidagi xalqaro madaniy tadbirlar hisoblanib, bu borada O‘zbekistonda o‘tkaziluvchi bir qator tadbirlarni keltirib o‘tish mumkin. Masalan, yuqorida ko‘rib chiqilgan an’anaviy madaniy meros haftaligi, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati [26]ning “O‘zbekiston madaniy merosi - yangi Renessans poydevori” Xalqaro kongresslari, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) [27] va O‘zbekiston Madaniyat Vazirligi bilan hamkorlikda “Xiva 2020-yil Turk dunyosi madaniyati poytaxti” deb e’lon qilingani munosabati bilan o‘tkazilgan to‘plam tadbirlari kabilar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligida tashkil etilgan tadbirlaridan biri bu 2021-yil YUNESKO (ijtimoiy va gumanitar fanlar sektori bilan) bilan hamkorlikda, Xiva shahrida o‘tkazilgan nufuzli “Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniyat forumi hisoblanadi. BMTning rasmiy saytidagi tashkilotning 75-sessiyasiga bag‘ishlangan maqolada, a’zo davlatlar Prezidentlarining nutqlaridan keltirilar ekan, O‘zbekiston Prezidentining davlatlar hamkorligini mustahkamlash yo‘lida ilgari surgan takliflari bilan birgalikda, “O‘zbekiston tomoni YUNESKO shafeligidagi xalqaro forumni qadimgi Xiva shahrida o‘tkazishga tayyor” deya keltirib o‘tganini yuksak baholanganini ko‘rish mumkin [28]. Shu bilan birga, Xiva forumi uchun maxsus ishga tushirilgan saytda [29]mazkur xalqaro tadbirni o‘tkazishda quyidagi maqsadlar ko‘rsatiladi:

- Osiyoning boy tarixini yoritish va o‘rganishga turtki berish;

- tarixiy merosni o'rganish natijalaridan barqaror taraqqiyot va tinchlikni ta'minlashda foydalanish;
- mintaqa bo'ylab mahalliy va hukumat rahbarlarini jadal ishbirligini ta'minlash orqali madaniy merosni muhofaza qilishda mavjud muammoli holatlarni izchil ko'rib chiqilishiga erishish;
- Markaziy Osiyoning jahon madaniy merosini asrash ishlarida qo'shgan hissasini ko'rsatish, hamda, hozirgi global tahdidlar, ekologik vaziyat, Kovid19 pandemiyasining ushbu mintaqa rivojiga ta'sirini o'rganib chiqishdan iborat.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Respublika miqyosida ayni shu tadbirga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilib, anjuman O'zbekiston sharqshunos olimlarni birlashtirgan bo'lib, universitet ilmiy kengashi tomonidan konferensiya materiallari asosida ilmiy to'plam nashrdan chiqarilgan. Nufuzli xalqaro tadbirni o'tkazish O'zbekiston tashqi siyosatida ham bir qator omillarni keltirib chiqarishi ma'lum bo'ldi [30]. Masalan, O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosatini amalga oshirishda "yumshoq kuch" va "madaniy diplomatiya" vositalaridan samarali foydalanishda o'ziga xos maydon bo'lib xizmat qilishi, mintaqa davlatlarining chinakam yaqinlashuvi, O'zbekistonning tarixiy madaniy merosini namoyon qilishi va jahon ilmiy va intellektual merosiga qo'shgan hissasini yaqindan ko'rsatishga imkon yaratishi, nihoyat va eng asosiysi - YUNESKO tashkiloti bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. To'plamdagi maqolalardan yana birida, madaniy meros bilan bir qatorda ajdodlar qoldirgan buyuk merosga dunyoning qiziqishi ortib borayotgani keltiriladi.

Umuman olganda, O'zbekiston-YUNESKO xalqaro tadbirlarining yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, ular – ham moddiy ham nomoddiy madaniy meros yubileyarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo davlatlari bilan jadal hamkorlik, yaqin va yaxshi qo'shnihilik aloqalarini mustahkamlash va xalqaro tashkilotlar doirasidagi faol ko'p tomonlama diplomatik aloqalarni rivojlantirishda xalqaro tadbirning ayni shu maqsadlarga erishishda o'z o'rnini mavjud. Shu sababli O'zbekistonda o'tkaziluvchi xalqaro madaniy tadbirlarni, ayniqsa, allomalar yubileyari, tarixiy va madaniy o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni "Sharq taronalari" va "Baxshichilik san'ati" xalqaro tadbirlari kabi "davriy an'anaviy"ga aylantirishni taklif etish mumkin. Ushbu taklifga xalqaro tadbirlarni yurtimizda YUNESKO bilan hamkorlikda o'tkazishning o'ziga xos tajribasi shakllangani bilan ham mustahkamlash mumkin. O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining so'nggi ikki yillik davri miqyosi hamda ahamiyati bo'yicha global miqyosdagi anjumanlar, muhim tadbirlarni hamkorlikda o'tkazish bo'yicha eng faol yillar bo'lib tarixda qolmoqda. Jumladan, 2025 yilda YUNESKO Bosh Konferensiyasining navbatdagi sessiyasini Samarqand shahrida o'tkazish ishlari, tayyorgarliklar boshlab yuborilgan. Bu o'zaro munosabatlarda xalqaro tadbirlarni hamkorlikda o'tkazish bo'yicha unikal tajriba yeg'ilayotganidan dalolat beradi.

Madaniyatga e'tibor berish borasida so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat rahbari boshchiligida olib borilayotgan islohotlar amalda yaqqol samara berayotganini xorijlik ekspertlar ham ta'kidlaydi. YUNESKO shtab kvartirasida O'zbekiston tarixiy va ma'naviy merosi bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarning muttasil o'tkazilib borilayotgani ham bunga misol bo'ladi. Bu fikrning isboti tariqasida O'zbekistonning YUNESKO doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasi oldida turgan eng so'nggi vazifalardan biri bu madaniy tadbirlarni jonlantirish, rivojlantirish ekanligi tadqiqotga tayangan holda ayon bo'lgan bo'lsa, buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning 1050-yillik yubileyini keng nishonlashga oid qaror YUNESKO Ijroiya Kengashi 211 yig'ilishida tasdiqlangan bo'lib, dunyo bo'ylab ekspertlarni o'z ichiga olgan tadbir YUNESKO shtab kvartirasida o'tkazildi. Hozirgi vaqtda, O'zbekiston YUNESKO mamlakat kesimida bilan hamkorlik olib borayotgan davlatlardan biri hisoblanadi.

YUNESKO – o'z faoliyatini ta'lim, madaniyat va san'at kabi yirik sohalarni rivojlantirish, bog'lash orqali davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash ustunlari bilan tashkil qilgan tashkilot hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu tadqiqot jarayonida nafaqat o'rta yoki oliy ta'limning balki butun xalqni xalqlar madaniyati ta'limiga madaniy merosni asrash va uni ko'rsatish orqali jalb qilishni ko'zda tutishi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotning ushbu qismida tahlil etilgan tadbirlardan biri – "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida"ning nafaqat jahon siyosatidagi davlat imidji yuksalishiga, madaniy diplomatiyaning rivojlanishiga, balki Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi, umumiy merosining jahonda tanilishiga sabab bo'ladi. Zero, YUNESKO moddiy va nomoddiy merosni muhofaza qilish vazifasining asl maqsadi davlatlar madaniyatlarining umumiy nuqtasini ko'rsatish, undan esa o'zaro tinchlik va turli sohalardagi hamkorlikni yo'lga qo'yishda foydalanishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 12.01.2018. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti: <https://president.uz/uz/lists/view/1423>
2. Qarang: Сайфуллаев Д. По пути развития культурной дипломатии // Правда Востока. –2020. – № 205. – 29435.
3. Таджиев Ш. Использование инструментария «мягкой силы» в международных организациях// Халқаро муносабатлар. Международные отношения. International affairs. – 2019. – № 2. – С. 102-106.
4. Batafsil qarang: AQSH davlat departamenti, Madaniy diplomatiya bo'yicha maslahat qo'mitasining hisoboti. – 2005. R. – 1.
5. Сайфуллаев Д. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тар.фан.доктори илм.дар...дисс. – Т., –2020. – Б.77.

6. Batafsil qarang: Negruşa A.L., Toader V., Rus R.V., Cosma S.A. Study of Perceptions on Cultural Events' Sustainability // Sustainability. – 2016. –№ 8. –P.12–69.
7. Ratification – No.2974. UNESCO – London. –1993. Group: F.O. Class:94 Piece 2974.
8. Сайфуллаев Д. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тар. Фан-ри докт. ил.д. олиш у. тай. дисс. Автореф. – Т. –2020. –Б.26.
9. Алишерхўжаева М. Ўзбекистон ва ЮНЕСКО: муносабатларнинг муҳим давлари ва ташкилий-ҳуқуқий жиҳатлари // Шарқшунослик. –№ 4. – 2021. – Б.186.
10. Rahimov M., Abdimo'minov O. O'zbekiston va BMT: munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari. – Monografiya: Hamkornashr. – Т., –2021. –В. 224.
11. Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари: Монография. –Т.: «Хамкорнашр», –2021. – Б.224.
12. O'zR MDA. F. M–7, 11–ro'yxat, 585–ish, – 2 varoq.
13. Address by Irina Bokova, Director-General of UNESCO on the occasion of the Official Opening Ceremony of IX International Music Festival 'Sharq Taronalari' ('Melodies of the Orient') programme and meeting document: DG/2013/128. P.2.
14. Xalq so'zidan. O'zbekiston Prezidenti YUNESKO Bosh direktori bilan uchrashdi. 08 Oktyabr 2018. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-prezidenti-yunesko-bosh-direktori-bilan-uchrashdi>
15. Тожибоев М. Миллий ва умумбашарий қадриятлар : генезиси ва эволюцияси (1991–2016 йиллар). –Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, –2019. –Б.112.
16. Ushbu konvensiyalar jadval ko'rinishida dissertatsiyaning 6–ilovasida batafsil ko'rsatilgan.
17. Batafsil qarang: <https://society.uz/uz/congress>
18. Во время визита в Узбекистан Генеральный директор ЮНЕСКО и президент Шавкат Мирзиёев. – 2019. Электрон манба. URL: <https://ru.unesco.org/news/vo-vremya-vizita-v-uzbekistan-generalnyy-direktor-yunesko-i-prezident-shavkat-mirziyoev>
19. Elektron manba: <https://arastan.com/journey/tag/federico-mayor/>
20. Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. URL: <https://ich.unesco.org/en/convention>
21. Xalq so'zidan. Xalqaro baxshichilik san'ati festivali oldidan matbuot anjumani o'tkazildi. 01 Aprel 2019 // <https://xs.uz/uzkr/post/khalqaro-bakhshichilik-sanati-festivali-oldidan-matbuot-anzhumani-otkazildi-2>

22. General director of UNESCO will take part in a conference on the Cultural Heritage in Samarkand. Elektron manba. URL: <https://legacy.uz/general-director-of-unesco-will-take-part-in-conference-on-the-cultural-heritage-in-samarkand/>

23. “Le Figaro” – 1826 yilda asos solingan va tiraji oyiga deyarli 313 mingni tashkil qiluvchi fransuz milliy gazetasi bo‘lib, asosiy mushtariylari ziyoli fransuz ahli va rahbariyati vakillarini tashkil qiladi.

24. Audrey Azoulay : “L’odeur des jardins de Jaipur me transporte”. Elektron manba. URL:

25. <https://www.lefigaro.fr/voyages/inspiration/audrey-azoulay-l-odeur-des-jardins-de-jaipur-me-transporte-20201221>

26. “O‘zbekiston – buyuk yo‘llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat” mavzusidagi meros haftaligi ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita. URL: <https://religions.uz/news/detail?id=1178>

27. O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati – huddi shu maqsadda 2017–yilda tashkil etish g‘oyasi ilgari surilgan, 2018–yilda II Xalqaro kongress doirasida tashkil etilib, 2019–yilda Parijda ro‘yxatdan o‘tkazilgan dunyo bo‘ylab O‘zbekiston madaniyati va ilmini o‘rganuvchi 300 dan ortiq sharqshunos olimlar(Avstriya, AQSH, BAA, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gruziya, Gollandiya, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo davlatlari, Polsha, Rossiya, Turkiya, Shveysari, Yaponiya kabi davlatlardan)ni birlashtirgan jamiyat.

28. TURKSOY(Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti) – 1993–yilda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Turkiya Respublikasi madaniyat vazirlari tomonidan imzolangan kelishuv asosida tashkil etilgan. Turkiy xalqlarining birligi, qardoshligini mustahkamlash, mushtarak turkiy madaniyatni kelajak avlodlarga yetkazish va dunyoga tanitish yo‘lida faoliyat olib bormoqda. Turkiy Davlatlar Tashkiloti, Xalqaro Turk Akademiyasi, Turkiya Parlament Assambleyasi va Turk madaniyati va merosi fondi TURKSOY ila hamkorlikda faoliyat yurituvchi tashkilotlardir. TURKSOY, shuningdek, bir tamoyil va maqsadlarga ega bo‘lgan universitetlar va nodavlat tashkilotlar, YUNESKO, AYSESKO kabi xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi.

29. Les appels à la “ solidarité ” et la “ compassion ” dominant la seconde journée du débat de l’Assemblée générale au chevet, même virtuellement, d’un monde confronté à la COVID–19. SOIXANTE–QUINZIÈME SESSION, 6E & 7E SÉANCES, MATIN, APRÈS–MIDI & SOIR. 23 SEPTEMBRE 2020. URL: <https://press.un.org/fr/2020/ag12269.doc.htm>

30. <https://khivaforum.uz/en/about>

31. Марказий Осиё жаҳон цивилизациялари чорраҳасида / Масъул муҳаррир Н.П. Каримов. – Т., 2022. – 123 б.